

O'ZBEK TILI DARSLIGIDAGI TOPONIMLARNI O'RGATISH VA ULARGA DOIR TOPSHIRIQLAR

(6-sinf o'zbek tili darsligi misolida)

Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna
f.f.n., dots. Nukus DPI

Kenesbaeva M.

*Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek
tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabda o'qitiladigan o'zbek tili darsliklarida toponimik ma'lumotlar, atamalardan foydalanish, turli topshiriq va metodlar orqali o'quvchilarga toponimik ma'lumotlarni yetkazish usullari, ilmiy amaliy jihatdan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Toponimik ma'lumotlar, tabiatshunoslik, *sciens*, o'quvchilarning yosh xususiyati, yuqori sinflar, "Shaharlar zanjiri" metodi, "Kim tez" metodi, elektron saytlarda tayyorlangan qiziqarli mashg'ulotlar.

Kirish. Joy nomlari har bir sohada zarur hisoblanadi. Shu sababli joy nomlarini mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining ko'pchilik bo'g'inlarida, shu jumladan o'zbek tili darslarida ham o'rgatib borish zarur. Toponimik nomlarning to'g'ri yozilishi va joylashgan hududi bo'yicha ma'lumotlar berish lozim. Ta'limning barcha bo'g'inlarida jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarda (tabiatshunoslik, *sciens*) va yuqori sinf o'zbek tili darslarida ham geografik nomlarni ko'p ko'rishimiz mumkin.

6-sinf o'zbek tili darsligining 2022-yilgi yangi nashrida o'quvchilarga toponimlarni o'rgatish bo'yicha 1-bob ajratilganligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi bob "O'zbekistonga xush kelibsiz" deb nomlangan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bu bob orqali o'quvchilar joy nomlar bilan tanishadi va lug'at boyligini orttirishi mumkin. O'quvchilar dars davomida ko'plab nomlarga duch keladi. Nomlarni o'rganish uchun faqat nomlarning o'zini aytib o'tish bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Ushbu geografik ob'yekt haqida o'quvchilarda tasavvur hosil bo'lishi uchun, nomning qisqacha izohi, kelib chiqish tarixi bo'yicha ozgina to'xtab o'tilsa ayni muddao bo'lar edi. Bu narsa o'quvchilar qiziqishi, ob'yekt haqidagi bilimlarni xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi.

O'zbek tili darslarida toponimlarni o'rganishda o'quvchilarning nomlarni to'g'ri yozishlari va to'g'ri talaffuz qilishlariga erishish lozim. Chunki geografik nomlarni to'g'ri yozish o'quvchilar savodxonligining muhim qismi hisoblanib, nomlarni to'g'ri talaffuz qilishi orqali o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi.

Joy nomlarini har xil saytlarda topshiriqlar, o‘yinlar, viktorinalar, krossvordlar, rebuslar, qiziqarli savol-javoblar tashkil etish orqali yanada mustahkamlash mumkin.

6-sinf o‘zbek tili darsligidan toponimlar bo‘yicha saytda [topshiriq](#): bu topshiriq orqali ma’lumotlarni esiga tushirish va joy nomlari imlosiga alohida e’tibor qaratish lozim. Topshiriq elektron doskalar orqali bajarilsa butun sinfni qamrab ola oladi. Bu topshiriqni ishlash uchun gipersilka va QR kodlar zarur hisoblanadi.



Toponimlarni o‘rganishda “Alifbo” metodini qo‘llash mumkin. Bu o‘yin muayyan sinfga yoki ma’lum bir hududdagi shaharlarga bag‘ishlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Bu metodni o‘tkazish tartibi quyidagicha: harflar ketma-ketligiga asoslanadi. Avvalo, birinchi o‘quvchi “A” harfdan joy nomi aytiladi, keyinchalik harflar ketma-ketligida davom ettiriladi. Masalan: “A” harf- Andijon, “B” harfi- Buxora...

Xulosa. Umuman olganda, o‘zbek tili darslarida joy nomlarini o‘rgatishda topshiriqlar o‘rni katta. Avvalo, samaradorligi yuqori metod va topshiriqlardan foydalanilsa, toponimlarni o‘rganishda o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘dirmaydi. Asosiy maqsad, o‘quvchilarda toponimlar bo‘yicha imloviiy va to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllandirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xidoyatova D., Rasulov N., Yuldasheva N., Usmonova., Xasanova Y. “O‘zbek tili “ 6-sinf uchun darslik.-Toshkent.2022
2. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 62-66.
3. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(6), 54-56.
4. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.
5. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудидә Яшовчи Туркий Халқлар Тилидағи Таом Номларининг Лексик Қатламлари. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 25-32.
6. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog‘iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. TDPU ILMIY AXBOROTLARI.
7. Hakimov Q.M. Toponimika. Darslik. -Toshkent. 2016